



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUL / 7-SON,
II - QISM**



ISSN

INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyul.
II-qism*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxanovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyea Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukariyeva Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

GERMANIYA VA XITOIY TAJRIBASI ASOSIDA O'ZBEKISTONNING YASHIL EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'NALISHLARI.....	12
To'xliyeva Gulrux Dovron qizi	
Djurayeva Rano Abdullayevna	
TASHKILOT MUVAFFAQIYATIDA XODIMLARNI BOSHQARISH VA KUCHLI JAMOANING O'RNI	24
Abdullayeva Dinora Abduali qizi	
YASHIL ISH O'RINLARINING IQTISODIY AHAMIYATI VA QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA SOHASIDA YASHIL ISH O'RINLARI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI	28
Rahmatova Nargizaxon A'zamxonovna	
Atoyev Navro'zbek Rinatovich	
YO'L XO'JALIGI SOHASINI MOLIYALASHTIRISH HAMDA YO'L AKTIVLARINI BOSHQARISHDA XALQARO TAJRIBA	35
Shikirov Feruz Boxodirovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSİYALASH SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNI QIYOSIY TAHLILI	39
Jo'rayeva Moxinur Axmadjon qizi	
HUDUDLARNING QIYOSIY USTUNLIK LARI ASOSIDA YUQORI DAROMADLI ISH O'RINLARINI YARATISH: "HUDUD-IXTISOSLASHUV-KASB-ISB BERUVCHI-DAROMAD" MODEL I	49
Abdumukhtarov Anvarjon Akramjonovich	
QURILISH XIZMATLARI KO'RSATUVCHI KORXONALARNING IQTISODIY SAMARADORLIGINI SHAKLLANTIRISH SSENARIYLARI	55
Mamadiyev Ahmad Ulashovich	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA O'ZBEKISTON SANOAT KORXONALARIDA ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING SOLIQ-BYUDJET MEXANIZMLARI	62
Shokirova Dildora Shoyim qizi	
O'ZBEKISTONDA AVTOMOBIL YO'LLARI TARMOG'INING HOZIRGI HOLATI VA YO'L QURILISHI XIZMAT KO'RSATISHINI RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI TAHLILI	66
Qurbonov Sharofiddin Xurramovich	
ONLAYN VA SKORING TIZIM LARI ORQALI BERILADIGAN TEZKOR KREDITLARNI SUG'URTALASHDAGI YANGI TENDENSIYALAR	73
Yusupov Ruslan Muxtarovich	
ASSESSMENT MODEL FOR THE EFFECTIVENESS OF PUBLIC SERVICE TRANSFORMATION IN THE DIGITAL ECONOMY	81
An Kwangmin	
BIRLIK DOIRADA ANALITIK FUNKSIYALAR UCHUN YUQORI TARTIBLI DIFFERENSIAL SUBKOORDINATSIYA VA SUPERORDINATSIYA XOSSALARI	87
Jabborov Nasridin Mirzoodilovich	
Sadullayeva Gulasal Ulug'bek qizi	
SOLID PROPELLANT COMPOSITION AND ITS EFFECT ON THE LAUNCH PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS	93
Karimov Mustafo Aminboevich	
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
BANKLAR ORQALI KORXONALARNING INVESTITSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH: O'ZBEKISTON TAJRIBASI	97
Gafurova Dilshoda Farxotovna	



ANALYSIS OF INVESTMENT ATTRACTION PRACTICES ACROSS ECONOMIC SECTORS	102
Tolqin Imomqulov	
Ulugbek Turaqulov	
INNOVATION MECHANISMS ASOSIDA O'ZBEKISTONDA MIGRATSIYA JARAYONLARINI SAMARALI BOSHQARISH	105
Yoqubjon Toxirov	
O'ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM XIZMATLARI BOZORINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA TARKIBIY TAHLILI	109
Muxtarov Botir Abdusattarovich	
СТРУКТУРА ФОРМИРОВАНИЯ СТОИМОСТИ В ТЕКСТИЛЬНОЙ И ШВЕЙНОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ УЗБЕКИСТАНА: СДВИГ ЭКСПОРТНОЙ СТРУКТУРЫ ОТ ПРЯЖИ К ГОТОВОЙ ПРОДУКЦИИ	114
Муниса Турдибаева	
OILAVIY KORXONALARNI BOSHQARISHDA ULARNING IQTISODIY MEKANIZMIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARDAN FOYDALANISH TAHLILI	124
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQARUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQARISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI	133
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	



QURILISH MATERIALLARINI ISHLAB CHIQUVCHI KORXONALARDA ISHLAB CHIQUVISH HAJMINI OSHIRISH YO'NALISHLARI

Toshpulatov Asronbek Mutalibovich

Andijon davlat universiteti bosh muhandisi, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirishning ustuvor yo'nalishlari tahlil qilingan. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, resurs tejankor va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, mehnat unumdorligini oshirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini keng qo'llashning ahamiyati asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: qurilish materiallari sanoati, ishlab chiqaruvchi korxonalar, ishlab chiqarish hajmi, mahalliy xomashyo, resurs tejankor texnologiyalar, chiqindisiz ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari.

Аннотация. Проанализированы приоритетные направления увеличения объёмов производства на предприятиях по выпуску строительных материалов. Обоснована значимость глубокой переработки местного сырья, внедрения ресурсо- и безотходных технологий, сокращения производственных затрат, снижения себестоимости продукции, повышения производительности труда, научной организации труда, а также широкого применения автоматизированных систем управления.

Ключевые слова: предприятия по производству строительных материалов, объём производства, местное сырьё, ресурсосберегающие технологии, безотходное производство, производительность труда, себестоимость продукции, автоматизированные системы управления.

Abstract. The priority directions for increasing production capacity at construction materials manufacturing enterprises are analyzed. The importance of deep processing of local raw materials, implementation of resource-efficient and waste-free technologies, reduction of production costs, lowering product cost, improvement of labor productivity, scientific organization of labor, and extensive use of automated management systems is substantiated.

Keywords: construction materials manufacturing enterprises, production capacity, local raw materials, resource-efficient technologies, waste-free production, labor productivity, production costs, automated management systems.

KIRISH

Qurilish materiallari sanoati mamlakat iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Mazkur tarmoq uy-joy qurilishi, sanoat obyektlari, transport va muhandislik infratuzilmasini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mahsulotlarni ishlab chiqaradi. Sement, g'isht, beton, temir-beton buyumlari, keramika, gips, ohak va boshqa qurilish materiallariga bo'lgan talabning ortib borishi ushbu tarmoqning jadal rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Mamlakatimizda qurilish sohasida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va investitsiya dasturlari natijasida qurilish materiallari ishlab chiqarish hajmi yil sayin ortib bormoqda. Shu bilan birga, ayrim korxonalarda eskirgan uskunalardan foydalanilishi, energiya sarfining yuqoriligi hamda ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanilmayotgani ishlab chiqarish samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi. Shu sababli korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirish masalasi mahalliy ilmiy adabiyotlarda texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligi, energiya samaradorligi, raqamlashtirish, investitsiyalar va boshqaruv samaradorligi nuqtai nazaridan keng yoritilgan. Quyida ushbu yo'nalishda tadqiqot olib borgan olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilinadi.

Umid Otajanovning **“Namangan viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash holati va tahlili”** nomli maqolasida qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar kompleks tahlil qilingan [1]. Muallif korxonalarda ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi, investitsiyalar hajmi, xorijiy tajribalarni joriy etish va boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish hajmini oshirishning asosiy omillari ekanligini asoslaydi. Tadqiqotda **2017–2022-yillar** davomida qurilish sohasidagi o'zgarishlar tahlil qilinib, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun investitsion faollikni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Salohiddin Ochilovich Ibragimov **“Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari va takomillashtirish yo'llari”** nomli maqolasida ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda resurslardan samarali foydalanish masalalarini o'rgangan. Muallif ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun texnologik yangilanish, sifat menejmenti va ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish muhimligini ta'kidlaydi [7].

Muxammadjon Abdusamad o'g'li Ubaydullayev **“Qurilish materiallari sanoati korxonalari boshqaruv strategiyalarini takomillashtirishda mehnat samaradorligini oshirish”** nomli maqolasida mehnat unumdorligi va boshqaruv strategiyalarining ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini tahlil qilgan. Muallif texnologik modernizatsiya, xodimlar malakasini oshirish, motivatsiya tizimini rivojlantirish hamda logistika jarayonlarini takomillashtirish ishlab chiqarish natijalarini yaxshilashini ilmiy asoslaydi.

Yusufjon Jo'raxanov **“Qurilish materiallari ishlab chiqarishda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish va energiya samaradorligini oshirish”** nomli maqolasida ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash masalalarini yoritgan [8]. Tadqiqot natijalariga ko'ra, avtomatlashtirish mahsulot sifatini oshirish, energiya sarfini kamaytirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishga xizmat qiladi.

Abdullayev Asliddin Nabi o'g'li **“Qurilish sohasida materiallar ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyatini raqamlashtirish yo'nalishlari”** nomli maqolasida raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish korxonalari joriy etishning afzalliklarini tahlil qilgan [9]. Muallif ERP tizimlari, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish hamda raqamli monitoring tizimlari korxonalarda resurslardan foydalanish samaradorligini oshirib, boshqaruv sifatini yaxshilashini ko'rsatadi.

Nazarova Guzal Baxodirovna **“Mahalliy qurilish materiallarini ishlab chiqarishda innovatsion texnologiyalarni joriy etish masalalari”** nomli maqolasida innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish, energiya tejankor uskunalarni qo'llash va investitsiyalarni boshqarish masalalarini o'rgangan [10]. Muallif ushbu omillar korxonalarning raqobatbardoshligi hamda ishlab chiqarish hajmini oshirishga bevosita ta'sir qilishini ta'kidlaydi.

A. Karimovning **“Qurilish materiallari ishlab chiqarish texnologiyasi”** nomli darsligida qurilish materiallarini ishlab chiqarishning zamonaviy texnologik asoslari, xomashyo resurslaridan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Muallif mahsulot sifatini oshirish va ishlab chiqarish tannarxini pasaytirishda ilg'or texnologiyalarning ahamiyatini asoslab beradi. Mazkur manba keyingi tadqiqotlarda nazariy asos sifatida keng qo'llaniladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida, avvalo, ilmiy bilishning umumiy usullari, ya'ni tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimli yondashuv metodlari qo'llanildi. Ushbu usullar yordamida qurilish materiallari sanoatining rivojlanish tendensiyalari, ishlab chiqarish hajmiga ta'sir etuvchi omillar hamda korxonalar faoliyatining samaradorligi nazariy va amaliy jihatdan o'rganildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Qurilish materiallari sanoatini rivojlantirish O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror o'sishi, infratuzilma va uy-joy qurilishi sur'atlarini jadallashtirish hamda aholining qurilish mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirishda muhim o'rin tutadi. Shu bilan birga, mazkur tarmoq samaradorligini oshirish mamlakatning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlash, eksport salohiyatini kengaytirish va yangi ish o'rinlarini yaratishga xizmat qiladi (1-jadval)



1-jadval.

Ishlab chiqarish hajmini oshirishning asosiy yo'nalishlari

№	Yo'nalish	Amalga oshiriladigan chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
1	Texnologik modernizatsiya	Zamonaviy uskunalarni o'rnatish	Ishlab chiqarish hajmi va sifati oshadi
2	Avtomatlashtirish	Raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish	Mehnat unumdorligi ortadi
3	Xomashyo ta'minoti	Mahalliy xomashyodan samarali foydalanish	Tannarx kamayadi
4	Energiya tejash	Energiya tejamkor texnologiyalarni joriy etish	Xarajatlar qisqaradi
5	Kadrlar salohiyati	Xodimlar malakasini oshirish	Ish sifati va unumdorligi yaxshilanadi
6	Logistika	Ta'minot va transport tizimini takomillashtirish	Yetkazib berish tezlashadi

Ma'lumki, ishlab chiqarish hajmini oshirishda ekstensiv va intensiv omillar muhim ahamiyatga ega. Ekstensiv rivojlanishda korxonaning ishlab chiqarish quvvatlari, ishchi kuchi va xomashyo resurslari miqdor jihatdan kengaytiriladi. Masalan, yangi sexlar tashkil etish, qo'shimcha uskunalarni o'rnatish yoki ish vaqtidan samarali foydalanish orqali mahsulot ishlab chiqarish hajmi ko'paytiriladi.

Intensiv rivojlanish esa ishlab chiqarish jarayoniga ilg'or texnologiyalar, energiya tejamkor uskunalari va innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish orqali amalga oshiriladi. Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda avtomatlashtirilgan liniyalarni qo'llash, mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, resurs tejovchi texnologiyalardan foydalanish hamda mehnat unumdorligini oshirish ishlab chiqarish hajmini ko'paytirishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shuningdek, korxonalarda logistika tizimini takomillashtirish, mahsulot tannarxini pasaytirish, investitsiyalarni jalb qilish hamda ichki va tashqi bozor talablarini chuqur o'rganish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Natijada qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarning raqobatbardoshligi ortib, tarmoqning barqaror rivojlanishi ta'minlanadi.

Ma'lumki, ishlab chiqarishni rivojlantirishda ikki xil omil, ya'ni miqdor va sifat, ekstensiv va intensiv, boshqacha aytganda, kengaytiruvchi (uzaytiruvchi) va kuchaytiruvchi omillar muhim o'rin tutadi. Agar ishlab chiqarish sohasi kengaytirilsa, ekstensiv sur'atda kengaygan takror ishlab chiqarish yuzaga keladi. Aksincha, yanada samarali ishlab chiqarish vositalari qo'llanilsa, intensiv sur'atda kengaygan takror ishlab chiqarish amalga oshiriladi [2].

O'zbekiston sanoatida ekstensiv va intensiv rivojlanish omillaridan samarali foydalanish natijasida, ayniqsa, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda ishlab chiqarish hajmi hamda iqtisodiy samaradorlik bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Bugungi kunda tarmoqda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, mahalliy xomashyodan unumli foydalanish va ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda (2-jadval).

2-jadval.

Modernizatsiya natijasida asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarning o'zgarishi

Ko'rsatkich	Modernizatsiyadan oldin	Modernizatsiyadan keyin	O'zgarish (%)
Yillik ishlab chiqarish (ming tonna)	120	155	29,2
Mehnat unumdorligi (mln so'm/xodim)	280	360	28,6
Mahsulot tannarxi (ming so'm)	980	890	-9,2
Elektr energiyasi sarfi (kVt·soat/t)	125	104	-16,8
Sof foyda (mlrd so'm)	18,5	25,8	39,5

Samaradorlik tushunchasi iqtisodiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri bo'lib, u ishlab chiqarish jarayonida sarflangan resurslar evaziga olingan natijani ifodalaydi. Qurilish materiallari sanoatida samaradorlik korxonalarning ishlab chiqarish quvvati, mahsulot sifati, raqobatbardoshligi va moliyaviy natijalarida yaqqol namoyon bo'ladi. Shu ma'noda samaradorlik korxona faoliyatining o'ziga xos «ko'zgusi» hisoblanadi. Chunki unda ishlab chiqarish jarayonining barcha jihatlari o'z aksini topadi.

Har bir qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxona bozor sharoitida maksimal foyda olishga intiladi. Buning uchun ishlab chiqarish xarajatlari kamaytirish, mahsulot sifati oshirish hamda bozor talabiga mos mahsulot ishlab chiqarish muhim ahamiyatga ega. Samaradorlikning yuqori darajasiga erishish, avvalo, mahsulot tannarxini pasaytirish va resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish orqali ta'minlanadi (3-jadval).



3-jadval.
Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar

Tadbir	Amalga oshirish muddati	Kutilayotgan samaradorlik
Texnologik uskunalarni yangilash	1–2 yil	Ishlab chiqarish 20–30 % ga oshadi
Energiya tejovchi texnologiyalar	1 yil	Xarajatlar 10–15 % ga kamayadi
ERP tizimini joriy etish	6 oy	Resurslardan foydalanish yaxshilanadi
Xodimlarni qayta tayyorlash	Doimiy	Mehnat unumdorligi 10–15 % ga oshadi
Mahsulot assortimentini kengaytirish	1 yil	Sotuv hajmi ortadi

Ishlab chiqarish hajmiga bir qator ichki va tashqi omillar ta'sir ko'rsatadi. Avvalo, korxonaning xomashyo bilan uzluksiz ta'minlanishi ishlab chiqarish barqarorligini belgilaydi. Sifatli ohaktosh, gil, qum, shag'al, gips va boshqa xomashyo zaxiralarining yetarli bo'lishi mahsulot ishlab chiqarish hajmining oshishiga xizmat qiladi.

Texnologik uskunalarning zamonaviyligi ham muhim omillardan biridir. Yangi texnologiyalar asosida ishlaydigan uskunalar ishlab chiqarish unumdorligini oshiradi, mahsulot sifatini yaxshilaydi va chiqindilar miqdorini kamaytiradi.

Korxonalarning moliyaviy imkoniyatlari, investitsiyalar hajmi, energiya resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, malakali ishchi kuchi, bozor talabi hamda logistika tizimining rivojlanganligi ham ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir etadi.

Jumladan, qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda moddiy resurslardan samarali foydalanish uchun mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash, resurs tejamkor va chiqindisiz texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu esa ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish va mahsulot tannarxini pasaytirish imkonini beradi. Mehnat resurslari samaradorligini oshirish maqsadida xodimlar malakasini muntazam oshirish, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlaridan keng foydalanish talab etiladi. Shuningdek, energiya tejamkor uskunalar va innovatsion texnologiyalarni qo'llash energetika resurslari sarfini qisqartirishga xizmat qiladi. Axborot texnologiyalarini ishlab chiqarish jarayonlariga tatbiq etish esa boshqaruv tizimini takomillashtirib, korxona faoliyati samaradorligini yanada oshiradi [3].

Korxonalarda ishlab chiqarish hajmini oshirishning eng muhim yo'nalishlaridan biri texnologik modernizatsiya hisoblanadi. Eskirgan ishlab chiqarish uskunalari zamonaviy, yuqori unumdor va energiya tejamkor texnologiyalar bilan almashtirish ishlab chiqarish quvvatlarini sezilarli darajada oshiradi.

Masalan, sement ishlab chiqarishda quruq usuldagi texnologiyani qo'llash natijasida energiya sarfi kamayadi, ishlab chiqarish tannarxi pasayadi va mahsulot sifati yaxshilanadi. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarish liniyalari esa inson omili ta'sirini kamaytirib, mahsulot sifatining barqarorligini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy laboratoriya uskunalardan foydalanish xomashyo va tayyor mahsulot sifatini doimiy nazorat qilish imkonini beradi. Bu esa standartlarga mos mahsulot ishlab chiqarish va iste'molchilar ishonchini oshirishga xizmat qiladi. Natijada qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda mahsulot ishlab chiqarish hajmi ortib, mahsulot sifati va raqobatbardoshligi yuksaladi. Bu esa ichki bozor talabini qondirish bilan birga eksport salohiyatini kengaytirish hamda tarmoqning barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Samaradorlik iqtisodiy kategoriya sifatida foydalilik va natijalilikni anglatadi. Har qanday ishlab chiqarish jarayonida muayyan natijaga erishish uchun mehnat, vaqt, moliyaviy mablag'lar va boshqa resurslar sarflanadi. Shu sababli samaradorlikni baholashda olingan natija uni qo'lga kiritish uchun sarflangan xarajatlar va resurslar bilan taqqoslanadi. Demak, samaradorlik ishlab chiqarish faoliyati natijalari bilan ushbu natijalarga erishish uchun sarflangan mehnat, moddiy, moliyaviy va boshqa resurslar o'rtasidagi o'zaro nisbatni ifodalaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qurilish materiallari sanoatida yuqori samaradorlikka erishish iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishini takomillashtirish hamda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yo'naltirilayotgan investitsiyalar, jumladan, xorijiy investitsiyalar hajmini ko'paytirish bilan chambarchas bog'liq bo'lib, muhim ahamiyat kasb etadi. Qurilish materiallarini ishlab chiqaruvchi korxonalarda investitsiya loyihalarini amalga oshirish orqali yangi texnologiyalar joriy etilmoqda, ishlab chiqarish quvvatlari kengaytirilmoqda va mahsulot sifati oshirilmoqda [1].

Eksport hajmini oshirish va uni diversifikatsiya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar ham qurilish materiallari sanoati rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada tarmoq korxonalarning tashqi bozordagi raqobatbardoshligi ortib, milliy iqtisodiyotning barqaror o'sishi ta'minlanmoqda. Mamlakatdagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tahlili esa iqtisodiy barqarorlik darajasining yil sayin mustahkamlanib borayotganini ko'rsatadi.



Sanoat iqtisodiyot tarmoqlarini ishlab chiqarish vositalari va mehnat qurollari bilan ta'minlaydi. Milliy iqtisodiyot, fan, maorif, madaniyat, sog'liqni saqlash, sport, turizm va boshqa sohalarning rivojlanishi sanoat taraqqiyoti darajasiga bog'liq. Ishlab chiqarish kuchlari va ishlab chiqarish munosabatlari taraqqiyotida sanoatning tarixiy roli beqiyosdir. Shu sababli uning rivojlanish darajasi va samaradorligi qanchalik yuqori bo'lsa, davlatning mavqei shunchalik mustahkamlanadi hamda aholi turmush darajasi yanada yaxshilanib boradi [5].

Sanoat jamiyatning yetakchi kuchi bo'lgan ishchilar sinfini o'zida birlashtiradi. Sanoatning rivojlanishi natijasida unda band bo'lgan xodimlar soni ko'payadi, ularning bilim va ko'nikmalari, kasbiy mahorati ortadi hamda kadrlar salohiyati yuqori darajaga ko'tariladi. Sanoat, asosan, uch turga bo'linadi: og'ir sanoat, yengil sanoat va oziq-ovqat sanoati. Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda inson resurslarining o'rni alohida ahamiyatga ega. Malakali mutaxassislar zamonaviy texnologiyalarni samarali boshqaradi va ishlab chiqarish jarayonlarida yuzaga keladigan muammolarni tezkor bartaraf etadi [6].

Xodimlarni muntazam qayta tayyorlash va malakasini oshirish, zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etish, mehnatni rag'batlantirish tizimini takomillashtirish hamda xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratish mehnat unumdorligining oshishiga xizmat qiladi. Korxonalarda avtomatlashtirish darajasining ortishi natijasida bir ishchiga to'g'ri keladigan mahsulot hajmi ko'payadi, ishlab chiqarishdagi yo'qotishlar kamayadi va umumiy samaradorlik oshadi. Qurilish materiallari sanoatining vujudga kelishi va rivojlanishi mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarish jarayonlarining mexanizatsiyalashuvi hamda zamonaviy texnologiyalarning joriy etilishi bilan chambarchas bog'liqdir. Bugungi kunda sement, gipsokarton, oyna, keramika, quruq qurilish aralashmalari, temir-beton mahsulotlari va polimer qurilish materiallarini ishlab chiqarish yo'nalishlari jadal rivojlanmoqda.

Hozirgi zamon qurilish materiallari sanoati o'zaro bog'liq bo'lgan ko'plab tarmoq va ishlab chiqarish korxonalaridan tashkil topgan. Respublikada bugungi kunda **2 000** dan ortiq qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritmoqda, ularning asosiy qismi xususiy sektor hissasiga to'g'ri keladi. So'nggi yillarda sohada mahsulot ishlab chiqarish hajmi yiliga o'rtacha **8–10 foizga** o'smoqda. Jumladan, sement ishlab chiqarish hajmi yiliga **15 million tonnadan** oshib, ichki bozor ehtiyojini qondirish bilan birga eksport salohiyati ham kengaymoqda.

Tarmoqlar bo'yicha ishlab chiqarish tarkibida energiya tejovchi va yuqori qo'shimcha qiymatga ega qurilish materiallari ulushining ortishi kuzatilmoqda. Ayniqsa, zamonaviy panellar, bazalt tolali issiqlik izolyatsiyasi materiallari, quruq aralashmalar va polimer mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshmoqda. Natijada import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish kengayib, qurilish sohasining tashqi bozorlarga qaramligi qisqarmoqda. Bu ko'rsatkichlarning barchasi, avvalo, eksport tarkibida raqobatbardosh va yuqori qo'shimcha qiymatga ega tayyor qurilish materiallari ulushining izchil ortib borayotganini ko'rsatadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan faol investitsiya siyosati natijasida so'nggi yillarda o'nlab zamonaviy qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi. Xususan, zamonaviy texnologiyalar asosida sement va keramik plitkalar ishlab chiqaruvchi yirik zavodlar, energiya tejovchi oyna mahsulotlari hamda gazobeton bloklari ishlab chiqarish quvvatlari barpo etildi. Shuningdek, quruq qurilish aralashmalari va kompozit qurilish materiallari ishlab chiqarish bo'yicha bir qator investitsiya loyihalari amalga oshirilib, sohaning eksport salohiyati yanada mustahkamlanmoqda.

Shular qatorida qurilish materiallari sohasida ham qator zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlari tashkil etildi. Jumladan, zamonaviy texnologiyalar asosida quruq qurilish aralashmalari, keramik plitkalar, sanitar-texnika buyumlari va alyuminiy profililar ishlab chiqarish o'zlashtirildi. Ayni paytda energiya tejovchi oyna mahsulotlari, bazalt tolali issiqlik izolyatsiyasi materiallari, gipsokarton, gazobeton bloklari hamda temir-beton konstruksiyalar ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, yirik qurilish materiallari korxonalarida mahsulot hajmini ko'paytirish va eksport salohiyatini oshirish maqsadida yangi investitsiya loyihalari amalga oshirildi. Xususan, sement ishlab chiqarish korxonalarida qo'shimcha aylanma pechlar va energiya tejovchi texnologiyalar joriy etilib, yillik ishlab chiqarish quvvati bir necha million tonnaga oshirildi. Samarqand, Navoiy va Farg'ona viloyatlarida zamonaviy keramika va qurilish oynasi ishlab chiqarish majmualari foydalanishga topshirildi. Andijon viloyatidagi kichik sanoatlashgan iqtisodiy zona hamda boshqa sanoat hududlarida tashkil etilgan yangi korxonalarda polimer quvurlar, fasadbop panellar, metall konstruksiyalar, quruq aralashmalar, dekorativ qurilish materiallari hamda zamonaviy tom yopma mahsulotlari ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Natijada mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash darajasi oshib, import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi kengaymoqda.

Qurilish materiallari sanoatida erishilayotgan natijalar bilan bir qatorda, ayrim rivojlantirish yo'nalishlari ham mavjud. Xususan, ayrim korxonalarda energiya samaradorligini yanada oshirish, logistika tizimini takomillashtirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish sur'atlarini jadallashtirish hamda yuqori malakali mutaxassislar salohiyatini yanada kuchaytirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. XXI asrda ushbu yo'nalishlarni rivojlantirish uchun mamlakatimizda katta moddiy, mehnat, moliyaviy va intellektual resurslar mavjud bo'lib, ulardan samarali foydalanish orqali qurilish materiallari sanoatini yanada rivojlantirish mumkin.



Yuqoridagi natijalarga iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va tarkibiy o'zgartirishlar jarayonini jadallashtirish, qurilish materiallari tarmog'ini texnik hamda texnologik jihatdan izchil yangilash orqali erishiladi. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari va energiya tejovchi uskunalarni ishlab chiqarishga keng joriy etish sohaning raqobatbardoshligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Qurilish materiallari sanoatini modernizatsiya qilish, uning istiqbolli yo'nalishlarini belgilash, mahalliy xomashyo bazasidan samarali foydalanish hamda yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish mamlakat iqtisodiyotini innovatsion rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Bu esa milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, eksport salohiyatini mustahkamlash va aholining zamonaviy qurilish materiallariga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liq qondirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Adilxodjayev A.I. Qurilish materiallari. Darslik. 2020, Toshkent, 520 bet.
2. A'zamov Q.S., Axmedov B.A. Qurilish materiallari texnologiyasi. Darslik. 2019, "O'qituvchi", 432 bet.
3. Ergashev B.X., Abdullayev R.A. Qurilish materiallari va buyumlari. O'quv qo'llanma. 2020, Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 240 bet.
4. Mirzayev S.M., Ismoilov A.A. Qurilish materiallari. O'quv qo'llanma. 2021, Toshkent davlat transport universiteti nashriyoti, 256 bet.
5. Otajanov U. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish. Monografiya. 2023, Namangan, 186 bet.
6. Ibragimov S.O. Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirish va samaradorligini oshirish. Monografiya. 2022, Toshkent, 214 bet.
7. Otajanov U. Namangan viloyati qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining faoliyati samaradorligini ta'minlash holati va tahlili. // *Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot*, 2023.
8. Ibragimov S.O. Qurilish materiallari sanoatida ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning zamonaviy usullari va takomillashtirish yo'llari. // *Marketing*, 2024, 56–61 bet.
9. Ubaydullayev M.A. Qurilish materiallari sanoati korxonalari boshqaruv strategiyalarini takomillashtirishda mehnat samaradorligini oshirish. // Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari, 2024, 4 bet.
10. Abdullayev A.N. Qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalarda raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligi. // Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 2024, 5 bet.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 7/2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>